# 38. Qo‘shishning o‘rin almashtirish xossasi

Qo‘shishning o‘rin almashtirish xossasi: qo‘shiluvchilarning o‘rni almashtirilsa ham yig‘indi o‘zgarmaydi.

$a + b = b + a$





**1.** Salim kutubxonadan 4 ta darslik va 2 ta ertak kitobi oldi. U nechta kitobni kutubxonaga qaytarishi kerak? Butunni qizil, qismlarni esa ko‘k qalamda aylanaga oling. Butunni ikkita har xil usul bilan toping.




**2.** Raqs to‘garagiga birinchi sinf o‘quvchilaridan 5 nafar qiz bola va 3 nafar o‘g‘il bola qatnashadi. Birinchi sinf o‘quvchilaridan necha nafari raqs to‘garagiga qatnashadi? Yechimni ikki usul bilan yozing.

**3.** Nuqtalarning umumiy sonini ikki usul bilan toping va rasmini chizing.





CHOP ETISH UCHUN EMAS

**4.** Chizg‘ich yordamida ikkita misol tuzing.
Ularning umumiy va farqli tomonlarini ayting.







3 + 7 = 7 + 3 xossani chizg‘ich yordamida tasvirlang.







Chizg‘ichdan foydalangan holda o‘rin almashtirish xossasiga misol o‘ylab toping va chizing. Partadoshingizga shu xossani sonlar bilan yozishni taklif eting. So‘ng u topshiriqni qanday bajarganini tekshiring.







**5.** Yozuvlar to‘g‘rimi? Agar noto‘g‘ri bo‘lsa, ularni ustidan o‘chiring.

9 > 4 + 5    8 > 8 + 1    9 + 7 = 7 + 9

**6.** 3 sonidan boshlab ketma-ket keluvchi 5 ta natural sonni yozing.

8 sonidan boshlab ketma-ket keluvchi 4 ta sonni kamayish tartibida yozing.

CHOP ETISH UCHUN EMAS